# O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGI TAHLILI

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2025-YIL 3-SON

# ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2025 ГОД № 3

# UZBEKISTAN LAW REVIEW

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2025 ISSUE 3

VOLUME 2 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.2.3.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.

Crossref
Content
Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

"O'zbekiston qonunchiligi tahlili" ilmiy-tahliliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2014-yil 21-iyulda 02-0074-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

**Nashr bo'yicha mas'ul:**
O. Choriyev

**Muharrirlar:**
E. Mustafayev, Y. Yarmolik, Y. Mahmudov, K. Abduvaliyeva, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova, Sh. Beknazarova, E. Sharipov

**Musahhih:**
M. Tursunov

**Texnik muharrir:**
U. Sapayev

**Dizayner:**
D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** lawreview.uz
**E-mail:** uzlawreview@tsul.uz

**Nashriyot litsenziyasi**
№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2025-yil 26-sentabrda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 14.
Adadi: 100. Buyurtma: № 175.

**Bosmaxona litsenziyasi**
29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 37.

**© Toshkent davlat yuridik universiteti**

## TAHRIR HAY'ATI

### BOSH MUHARRIR

***S. Gulyamov*** *– TDYU Kiber huquq kafedrasi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir*

### TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

***I. Rustambekov*** *– O'quv ishlari bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o'rinbosari*

***Sh. Xo'jayev*** *– TDYU Intellektual mulk huquqi kafedrasi mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori – mas'ul muharrir*

***O. Oqyulov*** *– TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori*

***I. Bekov*** *– TDYU Konstitutsiyaviy huquq kafedrasi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor*

***B. Musayev*** *– TDYU Xalqaro xususiy huquq fakulteti dekani, yuridik fanlar doktori, professor*

***Sh. Saydullayev*** *– TDYU Ommaviy huquq fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor*

***O. Mahkamov*** *– TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlar doktori*

***D. Habibullayev*** *– TDYU Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor*

***B. Samarxodjayev*** *– Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori, yuridik fanlar doktori*

***S. Bozorov*** *– TDYU O'quv-uslubiy boshqarma (Regitrator ofis) boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor*

***Marc Bungenberg*** *– Saarlend universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik fanlar doktori*

***Samet Tatar*** *– Turkiyaning Anqara Yildirim Boyazid universiteti professori, yuridik fanlar doktori*

***Alper Ener*** *– Turkiyaning Anqara Haci Bayram universiteti dotsenti, Energetika nizolari arbitraj markazi bosh-kotibi o'rinbosari, yuridik fanlar doktori*

***Jamsheed Peeroo*** *– Sarbonna Universiteti professori, Stone 36 yuridik firmasi advokati, yuridik fanlar doktori*

***O. Narziyev*** *– TDYU Xalqaro xususiy huquq kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori*

***O. Xazratqulov*** *– TDYU Xalqaro xususiy huquq kafedrasi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor*

***V. Ergashev*** *– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti direktor o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor*

***D. Suyunova*** *– TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori*

***Sh.Joldasova*** *– O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori*

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-аналитический ж урнал «Обзор законодательства Узбекистана» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 21 июля 2014 года с удостоверением № 02-0074.

Журнал включён в перечень ж урналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлеж ат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов ж урнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

**Ответственный за выпуск:**
О. Чориев

**Редакторы:**
Е. Ярмолик, Й. Махмудов, Э. Мустафаев, К. Абдувалиева, Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова, Ш. Бекназарова, Э. Шарипов

**Корректор:**
М. Турсунов

**Технический редактор:**
У. Сапаев

**Дизайнер:**
Д. Раж апов

**Адрес редакции:**
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Веб-сайт:** lawreview.uz
**E-mail:** uzlawreview@tsul.uz

**Издательская лицензия**
от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию 26.09.2025.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 14. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 175.

**Лицензия типографии**
от 29.11.2023. № 174626

Отпечатано в типографии Ташкентского государственного юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

**© Ташкентский государственный юридический университет**

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

### ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

***С. Гулямов*** *– доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой киберправа Ташкентского государственного юридического университета – главный редактор*

### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

***И. Рустамбеков*** *– доктор юридических наук, профессор, проректор по учебной работе Ташкентского государственного юридического университета – заместитель главного редактора*

***Ш. Хужаев*** *– доктор философии (PhD) по юридическим наукам, заведующий кафедрой права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета – ответственный редактор*

***О. Окюлов*** *– доктор юридических наук, профессор кафедры гражданского права Ташкентского государственного юридического университета*

***И. Беков*** *– доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой конституционного права Ташкентского государственного юридического университета*

***Б. Мусаев*** *– доктор юридических наук, профессор, декан факультета международного частного права Ташкентского государственного юридического университета*

***Ш. Сайдуллаев*** *– кандидат юридических наук, профессор, декан факультета публичного права Ташкентского государственного юридического университета*

***О. Махкамов*** *– доктор юридических наук, и. о. доцента кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета*

***Д. Хабибуллаев*** *– доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой гражданского процессуального и экономического процессуального права Ташкентского государственного юридического университета*

***Б. Самарходжаев*** *– доктор юридических наук, профессор Университета мировой экономики и дипломатии*

***С. Бозоров*** *– доктор юридических наук, профессор, начальник управления учебно-методической работы (Регистратор-офис) Ташкентского государственного юридического университета*

***М. Бунгенберг*** *– доктор права, директор Европейского института Саарского университета (Германия)*

***С. Татар*** *– доктор права, профессор Анкарского университета Йылдырым Беязит (Турция)*

***А. Энер*** *– доктор права, доцент Анкарского университета Хаджи Байрам, заместитель генерального секретаря Арбитражного центра по энергетическим спорам (Турция)*

***Дж. Пеэру*** *– доктор права, профессор Сорбоннского университета, адвокат юридической фирмы Stone 36 (Франция)*

***О. Нарзиев*** *– доктор юридических наук, профессор кафедры международного частного права Ташкентского государственного юридического университета*

***О. Хазраткулов*** *– кандидат юридических наук, профессор, заведующий кафедрой международного частного права Ташкентского государственного юридического университета*

***В. Эргашев*** *– доктор юридических наук, профессор, заместитель директора Института законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан*

***Д. Суюнова*** *– доктор юридических наук, профессор кафедры уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета*

***Ш. Жолдасова*** *– доктор философии (PhD) по юридическим наукам, главный научный сотрудник Института проблем законодательства и парламентских исследований при Олий Мажлисе Республики Узбекистан*

**FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

"Uzbekistan law review" legal scientific and analytical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on July 21, 2014, with certificate number 02-0074.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

**Publication Officer:**
O. Choriev

**Editors:**
Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, E. Sharipov

**Proofreader:**
M. Tursunov

**Technical editor:**
U. Sapaev

**Designer:**
D. Rajapov

**Publishing department addess:**
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

**Website:** lawreview.uz
**E-mail:** uzlawreview@tsul.uz

**Publishing license**
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 26.09.2025.
Paper size: A4.
Cond.p.f: 14.
Units: 100. Order: № 175.

**Printing house license**
№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

**© Tashkent State University of Law**

**EDITORIAL BOARD**

**EDITOR-IN-CHIEF**

***S. Gulyamov*** *– Head of the Department of Cyberlaw of TSUL, Doctor of Law, Professor - Editor-in-Chief*

**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD**

***I. Rustambekov*** *– Deputy Rector for Academic Affairs, Doctor of Law, Professor - Deputy Editor-in-Chief*

***Sh. Xujayev*** *– Head of the Department of Intellectual Property Law of TSUL, Doctor of Philosophy (PhD) in Law - Executive Editor*

***O. Oqyulov*** *– Professor of the Department of Civil Law of TSUL, Doctor of Law*

***I. Bekov*** *– Head of the Department of Constitutional Law of TSUL, Doctor of Law, Professor*

***B. Musaev*** *– Dean of the Faculty of Private International Law of TSUL, Doctor of Law, Professor*

***Sh. Saydullaev*** *– Dean of the Faculty of Public Law of TSUL, Candidate of Legal Sciences, Professor*

***O. Mahkamov*** *– Acting Associate Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of TSUL, Doctor of Law*

***D. Habibullaev*** *– Head of the Department of Civil Procedural and Economic Procedural Law of TSUL, Doctor of Law, Professor*

***B. Samarkhodjaev*** *– Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law*

***S. Bozorov*** *– Head of the Educational and Methodological Department (Registration Office) of TSUL, Doctor of Law, Professor*

***Marc Bungenberg*** *– Saarlend universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik fanlar doktori Director of the European Institute of Saarland University, Doctor of Law*

***Samet Tatar*** *– Professor of Ankara Yıldırım Bayezid University, Turkey, Doctor of Law*

***Alper Ener*** *– Associate Professor of Ankara Haci Bayram University, Turkey, Deputy Secretary General of the Center for Arbitration of Energy Disputes, Doctor of Law*

***Jamsheed Peeroo*** *– Professor of the University of Sarbonne, lawyer of the law firm Stone 36, Doctor of Law*

***O. Narziev*** *– Professor of the Department of Private International Law of TSUL, Doctor of Law*

***O. Khazratkulov*** *– Head of the Department of Private International Law of TSUL, Candidate of Legal Sciences, Professor*

***V. Ergashev*** *– Deputy Director of the Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor*

***D. Suyunova*** *– Professor of the Department of Criminal Procedure Law of TSUL, Doctor of Law*

***Sh. Joldasova*** *– Chief Research Fellow of the Institute of Legislation Problems and Parliamentary Research under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law*

# MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

8 **NAZAROV SHAVKAT NAZAROVICH**
Fuqarolik jamiyati va davlat: konstitutsiyaviy-huquqiy hamkorlik asoslari

18 **NARIMANOV BEKZOD ABDUVALIYEVICH**
Nodavlat notijorat tashkilotlari ramzlari bilan bog‘liq ma’muriy tartib-taomillarni takomillashtirish

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

25 **ABDUVALIYEV BAHODIR ABDULXAYEVICH**
Aqlli shaharlar ekotizimida subyektlar tarkibi va shartnoma munosabatlarining o‘ziga xosligi: O‘zbekiston Respublikasi misolida huquqiy tahlil

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

35 **BARLIBAYEVA DILNOZA ABDUKAXAROVNA**
Sudgacha adolat va huquqiy himoya: O‘zbekistonda fuqarolar huquqlarini himoya qilishning yangi mexanizmi

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQI

46 **RAXIMOVA KAMOLA XOSHIMJANOVNA**
“Work-life balance” konsepsiyasining nazariy asoslari va O‘zbekiston sharoitida joriy etish mexanizmlari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

55 **BAYTUROVA AIDA NABIYEVNA**
O‘zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy jihatlari

65 **OTAUBAYEVA AYGUL BAXRAMOVNA**
Ekologiya sohasidagi jinoyatlar va ma’muriy huquqbuzarliklarning chegarasini aniqlash: Qozog‘iston va O‘zbekiston qonunchiligining qiyosiy-huquqiy tahlili

74 **KALDARBEKOV ASILJON OSPANOVICH**
Qozog‘iston va O‘zbekistonda o‘rmon fondiga mulk huquqi bilan bog‘liq dolzarb muammolar

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

84 **OCHILOV SAMARIDDIN KAMOLIDDINOVICH**
Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining shakllanishiga oid ilmiy-nazariy va huquqiy qarashlar

98 **NURMANOV XOLBEK RAHMATILLA O‘G‘LI**
Kiberjinoyatchilik o‘sishi ortidan kiberjinoyatchi portretiga nazar

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

109 **MIRZAYEVA MOHINA SROJIDDINOVA**
“Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri loyihasida shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kafolatlarning huquqiy tahlili

# СОДЕРЖАНИЕ


12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 **НАЗАРОВ ШАВКАТ НАЗАРОВИЧ**
Гражданское общество и государство: основы конституционно-правового взаимодействия

18 **НАРИМАНОВ БЕКЗОД АБДУВАЛИЕВИЧ**
Совершенствование административных процедур, связанных с символикой негосударственных некоммерческих организаций

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

25 **АБДУВАЛИЕВ БАХОДИР АБДУЛХАЕВИЧ**
Специфика субъектного состава и договорных отношений в экосистеме умных городов: правовой анализ на примере Республики Узбекистан

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

35 **БАРЛИБАЕВА ДИЛНОЗА АБДУКАХАРОВНА**
Досудебная справедливость и правовой щит: новый механизм защиты прав граждан в Узбекистане

12.00.05 – ТРУДОВОЕ ПРАВО. ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

46 **РАХИМОВА КАМОЛА ХОШИМЖАНОВНА**
Теоретические основы концепции work-life balance и механизмы её внедрения в условиях Узбекистана

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

55 **БАЙТУРОВА АИДА НАБИЕВНА**
Правовые аспекты создания и функционирования охраняемых природных территорий в Узбекистане

65 **ОТАУБАЕВА АЙГУЛЬ БАХРАМОВНА**
Разграничение преступлений и административных правонарушений в сфере экологии: сравнительно-правовой анализ законодательства Казахстана и Узбекистана

74 **КАЛДАРБЕКОВ АСЫЛЖАН ОСПАНОВИЧ**
Актуальные проблемы права собственности на лесной фонд в Казахстане и Узбекистане

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

84 **ОЧИЛОВ САМАРИДДИН КАМОЛИДДИНОВИЧ**
Научно-теоретические и правовые взгляды на формирование института условно-досрочного освобождения от наказания

98 **НУРМАНОВ ХОЛБЕК РАХМАТИЛЛА УГЛИЈ**
Профиль киберпреступника сквозь призму роста киберпреступности

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

109 **МИРЗАЕВА МОХИНА СРОЖИДДИНОВНА**
Правовой анализ гарантий прозрачности и антикоррупционных мер в проекте закона «Об автомобильных дорогах» в новой редакции

# CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

8 **NAZAROV SHAVKAT NAZAROVICH**
Civil society and the state: foundations of constitutional and legal cooperation

18 **NARIMANOV BEKZOD ABDUVALIEVICH**
Improvement of administrative procedures related to the symbols of non-governmental non-profit organizations

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

25 **ABDUVALIEV BAHODIR ABDULKHAYEVICH**
Specifics of subject composition and contractual relations in the ecosystem of smart cities: legal analysis on the example of the Republic of Uzbekistan

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

35 **BARLIBAEVA DILNOZA ABDUKAKHAROVNA**
Pre-trial justice and legal shield: a new mechanism for protecting the rights of citizens in Uzbekistan

12.00.05 – LABOR LAW. SOCIAL SECURITY LAW

46 **RAKHIMOVA KAMOLA KHOSHIMJANOVNA**
Theoretical foundations of “work-life balance” concept and implementation mechanisms in Uzbekistan context

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

55 **BAYTUROVA AIDA NABIYEVNA**
Legal aspects of the establishment and functioning of protected natural areas in Uzbekistan

65 **OTAUBAYEVA AIGUL BAKHRAMOVNA**
Distinction between environmental crimes and administrative offenses: a comparative legal analysis of the legislation of Kazakhstan and Uzbekistan

74 **KALDARBEKOV ASILJAN OSPANOVICH**
Current issues of ownership of forest fund in Kazakhstan and Uzbekistan

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW
S

84 **OCHILOV SAMARIDDIN KAMOLIDDINOVICH**
The scientific-theoretical and legal views on the formation of the institution of parole

98 **NURMANOV KHOLBEK RAHMATILLA UGLI**
A look at the cybercriminal profile in the event of the growth of cybercrime

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

109 **MIRZAEVA MOHINA SROJIDDINOVA**
Legal analysis of transparency and anti-corruption safeguards in the new edition of the law “On Automobile Roads”

Kelib tushgan / Получено / Received: 25.08.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 15.09.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.09.2025

**DOI: 10.51788/tsul.uzlawrev.2.3./KTHD4733**
**UDC: 343.265(045)(575.1)**

# JAZONI O'TASHDAN MUDDATIDAN ILGARI SHARTLI OZOD QILISH INSTITUTINING SHAKLLANISHIGA OID ILMIY-NAZARIY VA HUQUQIY QARASHLAR

**Ochilov Samariddin Kamoliddinovich,**
Oʻzbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Bakalavriat fakulteti katta prokurori
ORCID: 0009-0003-2221-2602
e-mail: samariddinochilov24@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Jinoyat huquqidagi jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining shakllanish va rivojlanish tarixini tadqiq etish, ushbu institut amalda boʻlgan davrda erishilgan natijalarni tahlil qilish, yoʻl qoʻyilgan xatolarning yuzaga kelish sabablarini oʻrganish jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amaliyotining amaldagi tizimini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti qadimdan mavjud boʻlib, shaxsga nisbatan jinoiy taʼqib boshlanishi bilan u tomonidan sodir etilgan jinoiy qilmishning xususiyati va oqibatlari hamda shaxsning xulq-atvori va sodir etgan jinoiy qilmishiga munosabatidan kelib chiqqan holda qoʻllanilgan. Mazkur holat bugungi kundagi jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amaliyotining fundamental va falsafiy asoslari ilgaridan shakllanganligi va tadrijiy rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Muallif maqolada jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining qadimgi huquq elementlarida namoyon boʻlishi, mamlakatimiz tarixida mavjud boʻlgan davlatchilik gʻoyalariga mutanosib ravishda rivojlana borishi, ushbu institutning vujudga kelishi va shakllanishi borasida tadqiqotchi olimlarning qarashlarini tahlil qilgan. Jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining shakllanish bosqichlari jinoyat huquqidagi boshqa institutlarning shakllanishiga mutanosib ravishda rivojlanib borishi, tarixiy rivojlanishining xarakter va xususiyatlari bayon etilgan.*

***Kalit soʻzlar:*** *jazo, sud, hokimiyat, tarix, xulq-atvor, qonun, huquq, jazodan ozod qilish, mahkum, insonparvarlik, shartli ozod qilish, mafkura, tizim, jazoni oʻtash, shartli ozod qilish*

## НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ ИНСТИТУТА УСЛОВНО-ДОСРОЧНОГО ОСВОБОЖДЕНИЯ ОТ НАКАЗАНИЯ

**Очилов Самариддин Камолиддинович,**
старший прокурор факультета бакалавриата Правоохранительной академии Республики Узбекистан

***Аннотация.*** *В статье анализируются история становления и развития института условно-досрочного освобождения от наказания в уголовном праве. Рассматриваются этапы его применения в различные исторические периоды, достигнутые результаты, причины допущенных ошибок и их последствия. Изучение данных аспектов позволяет определить*

*пути совершенствования действующей системы условно-досрочного освобождения. Данный институт известен с древности и применялся исходя из характера и последствий совершённого преступления, а также поведения лица и его отношения к содеянному. Это свидетельствует о том, что философские и правовые основы условно-досрочного освобождения формировались исторически и развивались постепенно. В статье также раскрывается проявление института условно-досрочного освобождения в элементах древнего права, его развитие в соответствии с идеями государственности, существовавшими в истории нашей страны, а также анализируются взгляды исследователей относительно его возникновения и формирования. Показано, что этапы становления условно-досрочного освобождения развивались параллельно с формированием других институтов уголовного права, а его историческая эволюция обладала собственной спецификой и характерными особенностями.*

***Ключевые слова:*** *наказание, суд, власть, история, поведение, закон, право, освобождение от наказания, осуждённый, гуманизм, условно-досрочное освобождение, идеология, система, исполнение наказания*

## THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND LEGAL VIEWS ON THE FORMATION OF THE INSTITUTION OF PAROLE (EARLY CONDITIONAL RELEASE FROM SERVING A SENTENCE)

**Ochilov Samariddin Kamoliddinovich,**
Senior Prosecutor of the Bachelor's Faculty
of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

***Abstract.*** *Studying the history of the formation and development of the institution of conditional early release from serving a sentence in criminal law, analyzing the results achieved during the period of this institution, and studying the reasons for the occurrence of errors made makes it possible to further improve the existing system of the practice of conditional early release from serving a sentence. The institution of conditional eajrly release from serving a sentence has existed since ancient times and was applied to a person upon the commencement of criminal prosecution, based on the nature and consequences of the criminal act committed by him, as well as the person's behavior and attitude towards the criminal act committed. This circumstance testifies to the fact that the fundamental and philosophical foundations of today's practice of conditional early release from serving a sentence have been formed and gradually developed. In the article, the author analyzes the views of researchers on the manifestation of the institution of conditional early release from serving a sentence in the elements of ancient law, its development in accordance with the ideas of statehood existing in the history of our country, and the emergence and formation of this institution. The stages of formation of the institution of conditional early release from serving a sentence are described in accordance with the formation of other institutions of criminal law and the nature and features of its historical development.*

***Keywords:*** *punishment, court, authority, history, behavior, law, right, release from punishment, convict, humanism, parole, ideology, system, serving a sentence, conditional release*

### Kirish

Jazonio'tashdanmuddatidanilgarishartliozodqilishinstitutijinoyathuquqiningboshqa institutlarisingarijamiyatdagiijtimoiymunosabatlarxaraktervaxususiyatigamosravishda shakllanib va rivojlanib kelganligini kuzatish mumkin. Mazkur institutni qo'llash jinoyat huquqining boshqa institutlari, xususan, jazo tayinlash va jazodan ozod qilishning boshqa turlaribilanparallelravishdatakomillashdi.

Zamonaviy davlatlar jinoyat qonunchiligida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yaxshi tanilgan institut hisoblanadi. Ammo mutaxassislar orasida bundan yuz yil oldin va bugungi kunda ham uning huquqiy tabiati va mazmuniga nisbatan yagona fikr mavjud emas. Bunday yondashuv, bizningcha ko'p jihatdan huquqiy muhit va an'analarning farqiga, shuningdek, uni har bir alohida davlatda qo'llash shartlari institutning shakllanish va rivojlanish tarixiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan [1, 11-b.].

O'zbekiston jinoyat huquqi tarixida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining shakllanish va rivojlanish tarixi bugungi kunga qadar alohida mavzu doirasida tadqiq etilmagan. Bugungi kunda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini qo'llash amaliyoti kengayib borayotganligi, sud-huquq islohotlari doirasida jinoiy jazolarni liberallashtirish takomillashib borayotganligi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, ushbu institutning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, pirovard natijada bu boradagi huquqni qo'llash amaliyotini ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston davlat va huquqi tarixiga oid manbalar tahlil qilinganda, jinoyat huquqi bo'yicha sudlov tizimi, jazo turlari va jazo tayinlash amaliyoti haqida ma'lumotlar keltirilib, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti alohida yoritilmagan.

Tadqiqotchilar [2, 17-b.] jinoyat-ijroiya qonunchiligining fundamental asoslarini, rivojlanish tendensiyalarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilib, shakllanish bosqichlarini o'zbek davlatchiligining tadrijiy rivojlanish tarixiy xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi davrlarga bo'lib o'rgangan:

*birinchi bosqich* – VII-XIX asrlar oralig'ida amalda bo'lgan shariat qonunlari va odat huquqi normalari asosida jinoiy jazolarni tayinlash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini ta'minlashda zindonlardan foydalanilgan Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari davri;

*ikkinchi bosqich* – ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo shariat sudlari va 1864-yil 20-noyabrda qabul qilingan "Jazolar to'g'risida"gi nizom asosida Rossiya imperiyasi sudlari tomonidan belgilangan va ijrosi zindonlar hamda maxsus qurilgan binolarda ta'minlangan Rossiya imperiyasi hukmronligi davri;

*uchinchi bosqich* – 1917-yilda sovet hokimiyatining o'rnatilishi, jinoyat-ijroiya siyosatini amalga oshirish Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissarligining tashkiliy-ma'muriy boshqarmasi majburiy ishlar bo'limiga yuklatilgan, shuningdek, sobiq Ittifoq davridagi jinoyat-ijroiya qonunchiligi amal qilgan davr;

*to'rtinchi bosqich* – Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi (keyingi o'rinlarda – JIK) asosida jazoni ijro etish tizimi tartibga solingan davrlar sifatida ajratilib, institutning normativ-institutsiyaviy jihatlari tahlil qilingan.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining shakllanish va rivojlanish tarixini tahlil qilish ushbu institutni qo'llash zaruriyati hamda o'z davrida tutgan o'rni va ahamiyatini o'rganish, pirovard natijada bugungi kun jinoyat huquqida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini takomillashtirish borasida zarur xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism**

Qadimgi va o'rta asrlar davrida O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan davlatlarda dastavval zardushtiylik dini aqidalari, so'ng esa milodiy VII asrning oxiri VIII asrning boshlaridan XX asrning 20-yillarigacha shariat qoidalari bilan birga shariatda taqiqlanmagan urf-odatlar hukmronlik qilgan [3, 40-b.].

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"ning bir qancha she'rlarida kishilar o'rtasida talab qilinadigan xulq-atvor qoidalari, oila-nikoh masalalari, jinoyat va jazo, ayniqsa, protsessual normalardan ordaliya [3, 352-b.] haqidagi ko'rsatmalar diqqatga sazovor. "Avesto"da jazo berish "diniy-etnik qoidalarga bo'ysundirish maqsadidagi harakat" ma'nosida qo'llanilib, xatti-harakat uchun to'lovni anglatgan. Jazo diniy-etnik qoidalar asosida olib borilgan [4, 280-b.]. Misol uchun, eng qadimiy huquqiy manbalardan bo'lgan "Avesto"da, jinoyat va jazo masalalariga alohida e'tibor berilgan. Unda jinoyat sodir qilgan shaxsning aybi va yoshidan tortib, turli ijtimoiy va shaxsiy holatlari jazoni yengillatish uchun sabab sifatida ko'rilgan [5, 12-b.].

Ta'kidlash joizki, ozodlikni cheklash jazosini shakllanish va rivojlanish tarixi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham qadimgi O'zbekiston va zardushtiylik ta'limoti bo'yicha ishlagan mualliflarning o'rganilgan ishlarida o'sha davrlarda ozodlikni cheklash jazosi yoki uning belgilarini o'zida mujassam etgan jazo choralari kuzatilmaganligi bayon qilingan [3, 41-b.].

Arab xalifaligi tomonidan VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida hozirgi O'zbekiston hududidagi davlatlar bosib olindi va ushbu hududlarda islom dini keng targ'ib qilindi. Natijada ushbu davrdan boshlab mazkur davlatlarda jinoyat va jazo masalalarida odat normalari va islom diniga oid qarashlar singdirilgan shariat qoidalari amalga kiritildi.

Ushbu davrlarda isbot qilish va uning umumiy shartlariga oid ma'lum bir qoidalar mavjud bo'lib, ular shariat normalari asosida tartibga solinadigan dalillar bilan bog'liq bo'lgan. Ya'ni qozilik sudlari shariat normalari asosida dalillarning uch xil ko'rinishini e'tirof etgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat bo'lgan: a) aybiga iqrorlik; b) guvohlarning ko'rsatuvlari bilan tasdiqlash; d) qasam ichgan holda ma'lumotning tasdiqlanishi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar o'sha davrlarda respublikamiz hududidagi davlatlarda isbot qilish qozilik va biylik sudlari tomonidan amalga oshirilib, ular xon va amirning nazorati ostida ish yuritgan va ularning bu boradagi faoliyati odat hamda shariat normalari asosida tartibga solingan degan xulosaga kelish imkonini beradi [7, 74-b.].

Professor Z.Muqimovning O'zbekiston davlati va huquqi tarixiga oid tadqiqotishlarida [5, 232-b.] o'zbek xonliklarida jinoyat huquqining asosiy belgilari yoritilib, Buxoro amirligi islom davlati bo'lganligi, Xiva xonligi musulmon dini hukmron davlat bo'lganligi uchun jinoyat va jazo masalasi musulmon huquqi asosida hal etilganligi, Qozoq xonligida ham asosiy huquq manbai shariat bo'lib, qozoq va qirg'izlar yashaydigan joylarda odat huquqlarining ahamiyati kuchli ekanligi bayon etilgan.

Shuningdek, jinoyat va jazo masalalarida mahalliy hukmdorlar faqat shariat ko'rsatmalarigagina amal qilib qolmay o'zlari ma'qul deb hisoblagan jazolarga, uni ijro etish usullariga ham hukm qilganlar. Yuqorida keltirilgan jinoiy jazolarning ko'pgina turlari musulmon huquqining biror manbaida ko'rsatilmagan bo'lsa-da, mufti va qozilar ularni targ'ib etib, fatvo berib hukm qilganlar. Chunki jazoning asosiy maqsadi yetkazilgan zararni qoplash, o'ch olish, xun undirish, qo'rqitishdan iborat bo'lganligi qayd etilgan.

Shariat manbalari amal qilgan davrda jinoyat uchun tayinlanadigan jazolarning maqsadi va xususiyatlari ushbu davrda tayinlangan jinoiy jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amaliyotini qo'llash imkonini bermagan. Chunki shariat qoidalari hamda mufti va qozilarning fatvolariga muvofiq tayinlangan jazolar xususiyatiga ko'ra o'ta repressiv va biryo'la to'liq ijro etilgan. Bu davrda tayinlanadigan jinoiy jazolar davomli xarakterga ega bo'lmagan.

Xususan, og'ir jinoyatlar uchun qatl etish, osib o'ldirish, devordan itarib yuborish, minoradan uloqtirish, xun undirish, turmada (zindonda) saqlash, qo'lini kesish, mamlakatdan quvib yuborish, kam ahamiyatli qilmishlar uchun yarador qilish, tovoniga va

koʻkragiga urish, kaltak bilan urish, darra urish, azoblash (tan jazosi), mol-mulkini musodara qilish, sazoyi qilish, oʻzini yoki oila a'zolarini xon armiyasiga askarlikka berish kabi jazolar qoʻllanilgan.

Mazkur jazolarning xususiyati va ijro etish mexanizmi nafaqat ushbu jazolarni oʻtashdan muddatdan ilgari ozod qilish, balki jazodan ozod qilish amaliyotini qoʻllash imkonsiz boʻlganligini koʻrsatadi. Shunga koʻra, ushbu davr jinoyat qonunchiligiga oid manbalar va jinoyat-ijroiya amaliyotida jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti mavjud boʻlmaganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, qayd etilgan davomli jazo turlaridan zindonda saqlash va xon armiyasiga askarlikka berish jazolarini ijro etish, shu jumladan, mahkumning xulqini nazorat qilish amaliyoti haqida ham huquqiy manbalarda ma'lumotlar uchramaydi. Mazkur davrda amalda boʻlgan shariat qoidalari va huquq manbalarida ham jazoni oʻtashdan ozod qilishga oid tushunchalar mavjudligi yoritilmagan.

Shunday qilib, klassik maktab namoyandalari, aqli rasolik va aybni aralashtirib yuborgan holda jazoni yengillashtirishning shartsiz holati sifatida e'tirof etib, cheklangan aqli rasolik darajasini joriy etdilar [8, 29-b.].

Islom dini va shariat qoidalari Oʻzbekistonda jinoyat qonunchiligi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Shariatda ham jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan yengillashtiruvchi holatlar hisobga olingan, ular orasida aybni tan olish, qilmishiga chin dildan pushaymon boʻlish va jinoyat natijasida yetkazilgan zararni bartaraf qilish kabilar alohida qayd etilgan [6, 11-b.]. 1926-yilda qabul qilingan Oʻzbekiston SSRning birinchi Jinoyat kodeksida ham jazoni yengillashtiruvchi holatlar aniq belgilangan va sudlar jazo tayinlashda ushbu holatlarni hisobga olish majburiyligi qonuniylashtirilgan.

Turkiston oʻlkasida XIX asrning oxirlarida Chor Rossiyasi hokimiyati oʻrnatilgunga qadar boʻlgan davrga oid manbalarda jinoyat huquqi institutiga oid nazariy qarashlar yoritilgan boʻlsa-da, jinoyat huquqining jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutiga bevosita aloqador boʻlgan ma'lumotlar alohida yoritilmagan.

Jazodan ozod qilish instituti borasida tadqiqot olib borgan olimlar Oʻzbekiston Respublikasida jazodan ozod qilish, xususan, jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining rivojlanish tarixini mamlakatimizda ilk kodifikatsiyalashgan qonunchilikning qabul qilinish davridan boshlab oʻrganish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar [9, 33-b.].

Sovet jinoyat qonunchiligida jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari ozod qilish instituti deyarli Sovet hokimiyati oʻrnatilgan ilk oylardanoq mavjud boʻlgan. Sovet davrida mazkur institutning rivojlanish tarixi, avvalo, gumanistik tamoyillarning e'lon qilinishi bilan tavsiflanadi. Bu tamoyillar Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida jinoiy jazolarni tayinlash va ijro etish tizimida keng amalga oshirilgan [10, 11-b.].

Rossiya Markaziy Osiyoni bosib olgandan keyin jahon kolonial siyosatining tajribalaridan kelib chiqib hamda xalqning qahrini oʻziga qarshi qoʻzgʻatishdan choʻchib mahalliy amal qilgan qonunlarni hamda sud sifatida faoliyat olib borgan qozilarni saqlab qoldi. Qozilar shariat qonunlari asosida ish koʻrar edilar. Lekin ularning ish koʻrish faoliyati cheklangan boʻlib, asosan fuqarolik ishlarini koʻrar, jinoyat ishlaridan esa jamiyat uchun deyarli xavf tugʻdirmaydigan mayda jinoyatlar masalan, mayda oʻgʻrilik, haqorat qilish, badanga yengil shikast yetkazish kabi jinoyatlarnigina koʻrishi mumkin edi [10, 47-b.].

Rossiya imperiyasi Turkiston yerlarini bosib olganidan soʻng, ayollar va erkaklar sodir etgan jinoyatlari uchun sud qilinishi va ijtimoiy xavfli qilmishiga yarasha turmalarda jazo oʻtashi amaliyoti joriy etilgan [11, 15-b.].

Oʻzbekiston jinoyat qonunchiligi tarixida jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining paydo boʻlishi, shakllanishi va rivojlanishi Chor Rossiyasi tomonidan Markaziy Osiyo hududlari bosib olinib, sovet hukmronligi va sovet qonunchiligi oʻrnatilishi bilan bevosita bogʻliq.

Tadqiqotchilar mamlakatimizda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti rivojlanishi tarixini shartli ravishda uchta davrga boʻlgan. 1926-yilgi JKda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish alohida institut sifatida mavjud boʻlmagan. Bu davrda faqat pora olish va pora berish (118-m)da shaxsga nisbatan pora soʻrab tovlamachilik qilingan va u bu haqda tegishli idoralarga xabar bergan boʻlsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi belgilangan. 1959-yilgi JKda esa javobgarlikdan ozod qilish alohida institut sifatida berilgan boʻlib, muddat oʻtganligi; amnistiya; vaziyat oʻzgarishi; aybdorni maʼmuriy javobgarlikka tortish; ishni oʻrtoqlik sudiga oʻtkazish kabi asoslarga koʻra javobgarlikdan ozod qilish nazarda tutilgan. Amaldagi Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida javobgarlikdan ozod qilish asoslarining alohida bobda berilganligi mazkur institutning rivojlanayotganligidan dalolat beradi [12, 12-b.].

Chor Rossiyasida sud-huquq tizimi, shu jumladan, jinoyat qonunchiligi isloh qilinib, jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari ozod qilish institutini qoʻllash amaliyotini joriy etish va keyinchalik ushbu institutni qoʻllash amaliyotini kengaytirish borasida amalga oshirilgan islohotlar kodifikatsiyalangan jinoyat qonunchiligida oʻz aksini topdi.

Shunday qilib, oʻsha paytda (XIX asr boshlarida) jazo maqsadlari va xavfsizlik choralari oʻrtasida aniq bir chegara boʻlmagan, xavfsizlik choralariga faqatgina davolovchi taʼsir koʻrsatishgina emas, balki jazolovchi va toʻgʻrilovchi elementlarni bagʻishlash tendensiyalari koʻzga tashlanadi [8, 37-b.].

Tadqiqot ishlarida borgan sari jinoyat-ijroiya munosabatlarni tartibga solish usuli takomillashib borib, jazoni ijro etish faoliyatiga oid umumiy qoidalar shakllanib borgan hamda bu boradagi yaxlit qonunchilik tizimi shakllantirilgan degan xulosaga kelingan [2, 11-b.].

1917-yilgi oktabr inqilobidan soʻng jinoyat qonunchiligining shakllanishi hokimiyatni oʻrnatish va qoʻlda saqlab turish uchun agʻdarilgan sinflarga qarshi kurashishga qaratildi. Shunga koʻra, sovet jinoyat huquqida jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari ozod qilish instituti rivojlana boshladi. Sovet davlatining dastlabki yillarida bu institut turli hujjatlarda mustahkamlandi. Chor Rossiyasi deyarli tugallanganligi sababli uning qonunchiligidan voz kechish boshlandi. Shu bilan birga Chor Rossiyasining jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid ayrim tushunchalaridan foydalanildi. Bunday sharoit biroz vaqt talab qilganligi bois taʼkidlangan jinoyat huquqi instituti darhol shakllana olmadi [13, 15-b.].

Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qoʻmitasining 1918-yil 7-martdagi 2-sonli "Sudlar toʻgʻrisida"gi Dekretida jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tushunchasi haqida eslatib oʻtilgan. Mazkur Dekretning 32-moddasida: "Xalq sudining hukmi bilan hukm qilingan barcha shaxslar jazodan shartli yoki muddatidan oldin ozod qilish haqida yashash joyidagi mahalliy xalq sudiga murojaat qilish huquqiga ega", – ekanligi taʼkidlangan [14.].

Shu bilan birga, G.V. Shvekovning taʼkidlashicha [13, 55-b.], oʻsha davrda ozroq shubhalar bilan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti shakllana boshlaganligi haqida fikrlar mavjud.

Umuman olganda, antropologiya maktabi iroda erkinligi va ayb toifasini inkor etib, faqat ikkita huquqiy toifani – jinoyatchining xavfliligi va uni zararsizlantirishga doir choralarni eʼtirof etdi. Ruhiy xasta shaxslarning jinoiy javobgarligiga yondashuvning oʻziga xosligi ularga nisbatan ogʻir jazo choralarida aks etdi. Chunki bunday shaxslar oʻzlarining ruhiy holati tufayli jinoiy harakatlarga nisbatan moyil boʻladilar va yuqori ijtimoiy xavf tugʻdiradilar [8, 30-b.].

Bundan tashqari, ozodlikdan mahrum qilish jazosining maqsadlaridan biri inqilobchilar tribunali mas’ul xodimlarining 1918-yil 2-noyabrdagi syezdida mahkumlarni jamiyatga zarar yetkazish imkoniyatidan mahrum qilish haqida aytildi. Shuning uchun erkin fuqaro pozitsiyasiga qaytishga boʻlgan intilish ragʻbatlantirish choralari bilan qoʻllab-quvvatlanishi kerakligi bildirilgan [15, 46-b.].

Qayd etilgan dalillar shundan dalolat beradiki, Sovet hukumati ogʻir davrlarga qaramasdan hukumat va sud tizimi aksilinqilobga qarshi kurashda mahkumlarni tuzatish va ularni mehnat hayotiga qaytarishga ishondi. Bundan tashqari, ushbu maqsadlarga erishishga ma’lum sabablar turtki boʻldi [13, 16-b.].

Butunrossiya sovetlarining 1918-yil 6-noyabrdagi “Ayrim toifadagi mahkumlarni ozod qilish toʻgʻrisida”gi 6-sonli qarorida Xalq komissarlar sovetining taklifi bilan bevosita sovet hokimiyati yoki oq gvardiya tashkiloti kuchlariga qarshi fitna uyushtirish yoki tayyorgarlik koʻrishda qatnashish yoki partiya va guruhlarga yordam berishda qatnashmagan, sovetlarga qarshi qurolli kurashni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyganlarga qarshi kurashda hokimiyat organlari bilan hamkorlik qilishni bildirgan mahbuslarning barchasi qamoqdan ozod qilindi. Bundan tashqari, qarorning 3-bandida “Barcha inqilob tribunallari va xalq sudlari muddatidan ilgari shartli ozod qilishni keng hajmda qoʻllash maqsadida zudlik bilan respublika uchun xavf tugʻdirmaydigan hukm qilingan shaxslar roʻyxatini qayta koʻrib chiqsinlar” deb koʻrsatildi [16, 138-b.].

Tadqiqotchi I.Nasirovning ta’kidlashicha, 1918–1953-yillarda qamoqxonalar tizimi orqali jami 7,6 million kishi jazo muddatini oʻtagan, mahkuma ayollarning umumiy soni 1953-yil 1-yanvar holatiga koʻra – 521588 nafarni tashkil etgan. Oʻsha davrda ayollarga nisbatan ham erkaklar singari surgun qilish va ozodlikdan mahrum qilish jazolari tatbiq etilgan [11, 16-b.]. Manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, bu davrda jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini qoʻllashda erkaklarga nisbatan ayollarga bir qator imtiyoz va yengillar mavjudligi kuzatilmaydi.

Jinoyat sodir etilishining sabablariga doir yondashuvlarni – teologik yoʻnalish; klassik va postklassik yoʻnalish; pozitiv (fiziologik, genetik, psixologik) yoʻnalish; sotsiologik yoʻnalish; radikal (tanqidiy) yoʻnalishga ajratib tadqiq qilish ularning farqli jihatlarni anglashga xizmat qiladi. Barcha yoʻnalishdagi ta’limotlar ma’lum kuzatuvlar oqibatida yuzaga kelgan va muayyan obyektiv asoslarga ega boʻlib, umumiy va alohida jinoyatchilikni oldini olishga doir strategiya va dasturlarni ishlab chiqishda inobatga olinishi lozim boʻladi [17, 13-b.].

Jazoni oʻtashdan mahkumlarni muddatidan ilgari ozod qilish institutlarini tarixiy-huquqiy tadqiq etish shu xulosani berishga asos beradiki, ularning ayrim turlarining yuzaga kelishi Rossiyada jinoyat huquqi ommaviy xususiyat kasb eta boshlagan davrga toʻgʻri keladi. Dastlab jazoni muddatidan ilgari oʻtashdan ozod qilish afv shaklida, jabrlanuvchining haqorat qilgan shaxsni kechirish huquqi timsoli sifatida paydo boʻlgan. Vaqt oʻtishi bilan afv etish huquqi faqat alohida shaxslarga nisbatan emas, balki shaxslari aniq boʻlmagan guruhlarga nisbatan ham qoʻllanila boshladi va amalda amnistiya belgilarini kasb eta boshladi. XIX asrda Rossiyada jazoni oʻtashdan shartli va shartsiz ozod qilishning boshqa shakllari ham yuzaga keldi [18, 10-b.].

Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qoʻmitasining 1919-yil 25-apreldagi “Ayrim toifadagi hibsga olingan va sudlanganlar xulosalariga koʻra ozod qilish haqida”gi qarori bilan mahkumlarni ozod qilishga oid chora-tadbirlarni qoʻllash davom ettirildi. Sovet hokimiyatiga qarshi yashirin chiqishlarda ishtirok etgan ishchilar va dehqonlarning arzimas boʻlsa-da, alohida guruhlari ekanligi umumlashtirildi. Faqat ongsizlik bu turdagi ishchi va dehqonlarning chiqishlarida ishtirok etishini anglatdi. Mazkur toifadagi fuqarolarning taqdirini

yengillashtirish uchun barcha choralarni ko‘rish zarur deb hisoblandi. Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi hokimiyat organlari Sovet tuzumiga qarshi qo‘zg‘olonlarni uyushtirganlikda ayblanmaganlarni va respublika uchun xavf tug‘dirmaydiganlarni yana bir bor ozod qilishga qaror qildi [19, 138-b.].

Sovet qonunchiligining keyingi bosqichida 1918-yil 30-noyabrda “RSFSR xalq sudlari to‘g‘risida”gi nizom qabul qilindi. Mazkur hujjatning 79-moddasida ko‘rsatilishicha, “Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish to‘g‘risidagi yo‘riqnomalarga muvofiq Xalq sudlariga mahkumlar va ularning qarindoshlari, jazoni ijro etuvchilarning iltimosnomasiga ko‘ra ularni shartli ozod qilish, afv etish, ularning huquqlarini tiklash huquqi berildi” [13, 18-b.]. Aynan shu davrdan boshlab jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amaliyotida huquqiy mexanizmga xos alomatlar aks eta boshladi. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid normalar vujudga keldi.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining shakllanish tarixini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar, muqaddam ushbu institutga xos alomatlar mavjud bo‘lganligi, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti kodifikatsiyalashgan normalar doirasida Chor Rossiyasi davridan boshlab yorqin namoyon bo‘la boshlagan degan xulosa chiqarishga asos bo‘ladi.

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ilgari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini qo‘llashda shaxsning subyektiv xulq-atvoridan kelib chiqqan holda yondashilgan, ya’ni asosan namunaviy xulq va mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabat hosilasidan kelib chiqqan. Adliya Xalq komissarligining 1918-yil 25-noyabrda qabul qilingan qarorida [20.] mazkur tartiblar haqida so‘z yuritilib, ozodlikdan mahrum qilish jazosi qoralanib, muddatidan ilgari ozod qilish imkoniyatlarini va sudga murojaat qilish majburiy emasligi ko‘rsatiladi. Biroq ozodlikdan mahrum qilinganlar tayinlangan jazoning yarmini o‘tagandan so‘ng muddatidan ilgari ozod qilish haqida ularning o‘zlari, qarindoshlari va Taqsimot komissiyasi iltimosnoma kiritishi mumkin. Bu muddatidan ilgari ozod qilish uchun minimal muddatni o‘tash lozimligidan dalolat beradi. Bunda, jazoning og‘irligi va jinoyatchi shaxsning xarakteri hisobga olinmasdan, yangi paydo bo‘layotgan ijtimoiy tartiblar sharoitida davlat tomonidan mahkumlarni qayta tarbiyalash va tuzatishda katta ishonch haqida gapirila boshlandi.

Bu yerda birinchi marta “muddatidan ilgari shartli ozod qilish” atamasi qo‘llanila boshlandi. “Agar muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxs jazoning o‘talmagan muddati davomida har qanday jinoyat sodir etadigan bo‘lsa, keyinchalik u qisqartirilgan butun muddat davomida darhol ozodlikdan mahrum qilinadi” deb qayd etildi [13, 18-b.].

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish takomillashib bordi. 1929-yil 6-noyabrda “SSSR davlatlari jinoyat qonunchiligi asoslari”ning 13-, 18-, 22-, 38-moddalariga o‘zgartirish kiritilishi keyinchalik ittifoqdosh respublikalar jinoyat kodeksiga ham o‘zgartirish kiritishga sabab bo‘ldi. Unga ko‘ra, muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun asos bo‘luvchi ijtimoiy himoya chorasini amalda o‘talgan qismi, sud tomonidan tayinlangan jazoning uchdan ikki qismidan kam bo‘lmasligi belgilandi.

Ozodlikdan mahrum qilishni mehnat lagerlarida o‘tayotganlarni muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish mahkumni o‘sha lager hududiga ozodlikdan mahrum qilishning qolgan qismini o‘tash uchun ko‘chirish shaklida tadbiq qilingan [9, 34-b.]. Bunda garchi mahkum jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan bo‘lsa-da, jazoni o‘tash lageri joylashgan hududda qolgan. Aynan, jazoni o‘tashning shartliligi ham jazoning qolgan qismi muassasa joylashgan hududda o‘tash belgilanishida namoyon bo‘lgan.

Kodifikatsiyalangan O'zbekiston jinoyat qonunchiligi, shu jumladan, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining shakllanish va rivojlanishi shu davrga qadar uch marta qabul qilingan jinoyat kodekslari bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston SSRning birinchi Jinoyat kodeksi 1926-yil 16-iyunda qabul qilinib, 1926-yil 1-iyuldan amalga kiritilgan. Bu kodeks umumittifoq qonuni hisoblangan, 1924-yil 31-oktabrda qabul qilingan "SSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlari asosiy qoidalar"ga muvofiq ravishda qabul qilingan [10, 49-b.]. Boshqa tadqiqotchilar [9, 34-b.] tomonidan O'zbekiston tarixida ilk Jinoyat kodeksining qabul qilinishiga 1924-yil 31-oktabrda "SSSR davlatlari jinoyat qonunchiligi asoslari"ning qabul qilinishi asos bo'lib, 1926-yilda 16-iyunda O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining qabul qilinishiga xizmat qilganligi ta'kidlangan.

RSFSRning 1922-yil 24-mayda qabul qilingan Jinoyat kodeksining 53-moddasida [21] agar sud mahkumning xavflilik darajasi uni majburiy izolyatsiya qilishni yoki axloq tuzatish ishlarini majburiy bajarishni talab qilmasligini e'tirof etsa, unga shartli jazo tayinlash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli ekanligi ko'rsatilgan.

Mazkur kodeksning 54-moddasiga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o'tashga hukm qilingan, tuzalganligini mehnatga halol munosabati va namunali xulqi bilan isbotlagan shaxslar jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini o'taganidan keyin shartli ravishda ozod qilinishi mumkin.

O'zbekiston SSR Jinoyat Kodeksining Umumiy qismi to'rt bo'limdan, Maxsus qismi o'n bobdan iborat bo'lgan. Umumiy qismning to'rtinchi bo'limida ijtimoiy muhofaza choralaridan muddatidan ilgari ozod qilish tartibi nazarda tutilgan.

O'zbekiston SSRning 1926-yildagi Jinoyat kodeksining 54-moddasida ham muddatli ijtimoiy himoya chorasiga hukm etilgan va o'zlarini tuzalganligini ko'rsatgan shaxslar hukm etilgan ijtimoiy himoya chorasidan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi mumkinligi, muddatidan ilgari shartli ozod qilish ijtimoiy himoya chorasidan to'liq voz kechish yoki uni yengilroq boshqa ijtimoiy mudofaa chorasi bilan almashtirish bayon etilgan.

Shartli ravishda ozod qilish institutiga keyinchalik juda muhim o'zgarishlar 1958-yilda qabul qilingan SSSR va ittifoqdosh respublikalarning Jinoyat qonunchiligi asoslari hamda 1960-yilda qabul qilingan RSFSR Jinoyat kodeksida kiritilgan. Ushbu o'zgarishlarga muvofiq, faqat ozodlikdan mahrum qilish jazosiga emas, balki tuzatish ishlari, surgun (ссылка), chiqarib yuborish (высылка), intizomiy batalonga yuborish jazolariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan ham shartli ravishda muddatidan ilgari ozod qilish va jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazoga almashtirish joriy etildi. Shartli ravishda ozod qilish va jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazoga almashtirish, sodir etilgan jinoyatning xarakteri hamda mahkumning oldingi sudlanganligiga qarab differensiyalangan holda qo'llanilar edi. Ayrim toifadagi mahkumlarga esa bu institutlar umuman tatbiq etilmas edi [18, 11-b.].

Sovet davlatining Umumittifoq qonunlari asosida 1959-yil 21-mayda O'zbekistonning yangi Jinoyat kodeksi [22, 51-b.] qabul qilinib, 1960-yil 1-yanvardan amalga kiritildi. Ushbu Jinoyat kodeksi O'zbekiston sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga ittifoqdosh respublika sifatida kirgan vaqtda ishlab chiqilgan va qabul qilingan edi. U davrda sotsialistik tuzum mavjud bo'lgan va u Kodeks sotsialistik ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazaridan ishlab chiqilgan edi. Vaholanki, jamiyatda sotsialistik ijtimoiy munosabatlar shakllanmagan, jamiyat ma'muriy buyruqbozlik asosida boshqarilar edi [10, 41-b.].

Mazkur Jinoyat kodeksining Umumiy qismi to'rt bo'limdan iborat bo'lib, to'rtinchi bo'lim jazo tayinlash va jazodan ozod qilish to'g'risidagi normalarni o'zida aks ettirgan, ushbu

kodeksning 50-moddasi jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tartibini belgilab, ushbu modda "Muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish va jazoni yengilrogʻi bilan almashtirish" deb nomlanib, amaldagi Jinoyat kodeksidan farqli ravishda jazoni yengilrogʻi bilan almashtirishga oid normalar bilan jazodan ozod qilishga oid normalar bitta moddada bayon etilgan.

Xususan, ushbu moddaga koʻra, ozodlikdan mahrum etishga, surgunga, badargʻa qilishga, axloq tuzatish ishlariga yoki intizom batalonigajoʻnatishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoning oʻtalmagan qismini yengilrogʻi bilan almashtirish qoʻllanilishi mumkin.

Mahkum namunali xulqi va mehnatga halol munosabati bilan oʻzining tuzalganligini isbotlagan taqdirdagina unga nisbatan muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish yoki jazoning oʻtalmagan qismini yengilrogʻi bilan almashtirish qoʻllanilishi mumkin.

Sobiq Sovet Ittifoqida jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amaliyotini qoʻllash ayrim turdagi jinoyatlar uchun murakkab mexanizmni nazarda tutardi. Ayniqsa, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish alohida nazoratga olingan boʻlib, bunday turdagi jinoyatlarni sodir etganlik uchun hukm qilingan shaxslarni muddatidan ilgari shartli ozod qilish murakkab xarakter kasb etgan.

Bezorilik uchun javobgarlik belgilangan qonun normalari rivojlanishi tarixining har qanday bosqichida uning ijtimoiy xavfliligi jinoyatchi tomonidan jamoat tartibi, jamiyatda oʻrnatilgan odob-axloq normalariga tajovuz qilish deb baholangan. Jinoyat qonunchiligining rivojlanib borishi bilan bezorilik oqibatida sodir etiladigan ayrim jinoyatlar uchun javobgarlik ogʻirlashtirilib, alohida kvalifikatsiyaviy holat sifatida qonunga kiritilgan [22, 23-b.].

SSSR davlatlari jinoyat qonunchiligi asoslarida jinoyat, ular uchun qoʻllanishi mumkin boʻlgan taʼsir choralari nazarda tutilib, uning 38-moddasida ijtimoiy himoya choralariga hukm qilingan mahkumlar tuzalish yoʻliga oʻtgan boʻlsalar, jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishi mumkinligini nazarda tutardi. Bu sud tomonidan mahkumni jazodan toʻliq ozod qilish yoki uni yengilroq turdagi ijtimoiy himoya choralariga almashtirishda ifodalangan.

Mazkur qoida 1926-yilgi Oʻzbekiston SSR JKning 54-moddasida [24, 32-b.] oʻz aksini topdi. Unga koʻra, muddatli ijtimoiy himoya chorasiga hukm etilgan va oʻzlarini tuzalganligini koʻrsatgan shaxslar hukm etilgan ijtimoiy himoya chorasidan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi mumkin. Muddatidan ilgari shartli ozod qilish ijtimoiy himoya chorasidan toʻliq voz kechish yoki uni yengilroq boshqa ijtimoiy mudofaa chorasi bilan almashtirishda ifodalangan.

Tadqiqot ishlarida keltirilishicha, [24, 49-b.] agar ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlariga, surgunga, badargʻa qilishga yoki intizomiy batalyonga yuborishga hukm qilingan shaxs namunali axloqi va mehnatga halol munosabati bilan tuzalganligini isbotlasa tayinlangan jazoning kamida yarmini amalda oʻtagandan soʻnguni sud tayinlagan jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki oʻtalmagan jazoni yengilroq jazo bilan almashtirish mumkin. Shu bilan birga sudlangan shaxs surgun, badargʻa va maʼlum mansabni egallash yoki maʼlum ish bilan shugʻullanish huquqidan mahrum qilish yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilish kabi qoʻshimcha jazolardan ham ozod qilinishi mumkin.

1959-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksi asosida ishlab chiqilgan jinoyat huquqi bozor iqtisodiyoti tizimiga asoslangan ochiq demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish talablariga mutlaqo javob bera olmasdi [10, 4-b.].

Shuningdek, ushbu Jinoyat kodeksi 1926-yildagi Jinoyat kodeksidan farqli ravishda jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (73-modda) va jazoni yengilrogʻi bilan almashtirish (74-modda) alohida moddalarda bayon etilib, jinoyat huquqining alohida institutlari sifatida bayon etildi [10, 4-b.].

Bundan tashqari, 1926-yildagi Jinoyat kodeksida muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilishni qoʻllayotgan yoki jazoning oʻtalmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirayotgan sud jamoat tashkiloti yoki mehnatkashlar kollektivining roziligini olib, shu jamoat tashkiloti yoki mehnatkashlar kollektiviga muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinganlarni sud tomonidan belgilangan jazoning oʻtalmagan qismi davomida kuzatib yurish yoki jazosining oʻtalmagan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilgan shaxsni kuzatib turish va ular bilan tarbiyaviy ish olib borish majburiyatini yuklashi mumkinligi nazarda tutilgan boʻlsa, 1959-yildagi Jinoyat kodeksida ushbu norma kiritilmasdan, faqatgina jazodan ozod qilishni qoʻllash tartibi va shartlari bayon etildi.

OʻzSSRning JK 1926-yilda qabul qilingan birinchi Jinoyat kodeksida, bezorilik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan edi. Bezorilik ilk bor ijtimoiy xavfli qilmish sifatida OʻzSSRning 1959-yilgi JK "Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar" bobiga kiritildi va u 1995-yil 1-aprelgacha amalda boʻldi. Ushbu bobda bir paytning oʻzida ham jamoat tartibi ham jamoat xavfsizligini taʼminlovchi ijtimoiy munosabatlarga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan edi [23.].

OʻzSSR JK 204-moddasida bezorilik uchun javobgarlik nazarda tutilib, u uch qismdan iborat boʻlgan va mazkur qonun bekor qilinguniga qadar unga bir necha marta oʻzgartish hamda qoʻshimchalar kiritilgan. Bezorilikning javobgarlikni ogʻirlashtiruvchi holatlari (JK 204-m. 2-, 3-q.) ogʻir jinoyatlar toifasiga kiritilgan edi.

Jamoat tartibini qoʻpol ravishda buzish va jamiyatga nisbatan ochiqdan-ochiq hurmatsizlik qilishdan iborat boʻlgan qasddan qilingan harakatlar, shuningdek, mayda bezorilik sodir etgani uchun maʼmuriy javobgarlikka tortilgan shaxsning bir yil ichida qayta mayda bezorilik sodir etishi jinoiy bezorilik sifatida baholangan va bezorilikning obyekti jamoat tartibini taʼminlovchi ijtimoiy munosabatlar deb qaralgan. Bezori oʻz harakatlari bilan jamoat tartibini, jamiyatda oʻrnatilgan yurish-turish qoidalarini buzgan [22, 20-b.].

Qayd etish joizki, ommaviy tartibsizliklar va jamoat xavfsizligiga qarshi jinoiy qilmishlar uchun hukm qilinganlarga nisbatan jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amaliyotini qoʻllash istisno etilgan. Shu bilan birga, ushbu turdagi jinoyatlarni fosh etishda faol yordam bergan, qilmishiga chin koʻngildan pushaymon boʻlib, tuzalish yoʻliga oʻtganlar jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish shaklida ragʻbatlantirilgan.

Alohida qayd etish kerakki, tadqiq etilayotgan jazodan ozod qilish institutini, Oʻzbekiston Respublikasida jazodan ozod qilish, xususan, jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining rivojlanish tarixini mamlakatimizda ilk kodifikatsiyalashgan qonunchilikning qabul qilinish davridan oʻrganish maqsadga muvofiq [24, 31-b.].

Jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amaliyotini qoʻllash yildan yilga takomillashib, jazoni oʻtashdan koʻzlangan maqsadlar uchun asosiy rol oʻynab, ayrim mezonlarga koʻra shartli ozod qilish qoʻllanilishi belgilangan boʻlsa-da, tadqiqotchi-olimlar [17, 19-b.] jinoiy jazodan koʻzlangan maqsadga jinoiy jazo qoʻllangunga qadar erishilgan (jinoyat oqibatlari ixtiyoriy bartaraf etilgan yoki kompensatsiyalangan) taqdirda – ragʻbatlantiruv mazmunidagi jinoyat ishini tugatish tartib-qoidalarini ishlab chiqishni taʼkidlaganlar.

**Xulosa**

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish institutini tadqiq qilgan olimlar [9, 37-b.] ushbu institutning tarixini o'rganish yuzasidan quyidagi xulosalarni bergan:

– jazodan ozod qilishning mazkur turi jinoyat qonunchiligimiz tarixidagi 1926, 1959, 1994-yillardagi Jinoyat kodekslarining barchasida nazarda tutilgan;

– barcha davrlarda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun jazoning amalda o'talgan qismi va mahkumning mehnatga halol munosabatda bo'lishi va tuzalish yo'liga o'tgan bo'lishi talab etilgan;

– jazodan ozod qilish sudlar tomonidan jazoni ijro etuvchi muassasa taqdimnomasiga ko'ra amalga oshirilgan;

– jazodan ozod qilish qo'llanishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi turli vaqtlarda davlatdagi siyosat, mavjud vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib borgan.

O'zbekiston jinoyat huquqida kodifikatsiyalangan jinoyat qonunchiligi joriy etilgunga qadar amalda bo'lgan shariat qoidalari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutiga bevosita amal qilmagan bo'lsa-da, muayyan shartlarda jazoning ayrim turlaridan (zindonband qilish, turmada qamash, qullikka berishdan) ozod qilish amaliyoti amalda bo'lgan.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti jinoyat huquqining boshqa institutlaridan farqli ravishda siyosiy mafkura va jamiyatning insonparvarlik qadriyatlariga mos ravishda shakllanib kelgan.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan olib borilgan tahlillarga ko'ra, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini shakllanishi va rivojlanish tarixi yuzasidan quyidagi xulosalar bayon etiladi:

*birinchidan,* jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti alomatlari boshqa huquq sohalari elementlari singari qadimgi huquqni qo'llash amaliyotida mavjud bo'lgan;

*ikkinchidan,* mamlakatimizda turli davrlarda amalda bo'lgan turli huquq tizimlari sharoitida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti alomatlari boshqa huquq sohalari elementlari singari qadimgi huquqni qo'llash amaliyotidan biri sifatida namoyon bo'lgan;

*uchinchidan,* jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amaliyoti dastlab Chor Rossiyasi davrida amaldagi siyosiy tizimni qo'llab-quvvatlashga rag'batlantirish vositasi sifatida xizmat qilgan;

*to'rtinchidan,* jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amaliyoti shakllanish bosqichida ham shaxsning xulq-atvori, sodir etgan jinoiy qilmishining xususiyati va tuzalish yo'liga o'tganligi inobatga olingan;

*beshinchidan,* jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti o'z davri siyosiy tizimining jamiyatga bo'lgan insonparvarlik munosabati darajasini ifodalagan, amaldagi siyosiy rejim va mafkura g'oyasidan kelib chiqqan holda qo'llanilgan.

## REFERENCES

1. Shaytankova I.N. Uslovnoye osuzhdeniye i uslovnoye osuzhdeniye za rubezhom (sravnitel'nyy analiz) [Cheteldagi shartli gap va shartli gap (qiyosiy tahlil)]. Moscow, Rossiya Federatsiyasi Adliya vazirligining Rossiya yuridik akademiyasi, 2008.

2. Adilov B.K. Jazoni ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlarining umumiy qoidalarini takomillashtirish [Jazoni to'g'ridan-to'g'ri qonun hujjatlarining umumiy qoidalarini ta'minlash]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2025, p. 48.

3. Haydarov M.I. Jinoyat qonunchiligida ozodlikni cheklash jazosi vujudga kelishining retrospektiv tahlili [A retrospective analysis of the emergence of the penalty of restriction of liberty in criminal law]. Center for Advanced Training of Lawyers under the Ministry of Justice. *Legal, Social, Scientific and Practical Journal*, 2021, vol. 5, no. 1.

4. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi [Legal Encyclopedia of Uzbekistan]. Tashknet, Adolat Publ., 2010, p. 704.

5. Muqimov Z. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi [History of the state and law of Uzbekistan]. Tashknet, Adolat Publ., 2003, p. 280.

6. Muslimov I.T. Sudlar tomonidan jazoni yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda jazo tayinlash muammolari [Problems of sentencing by courts taking into account mitigating circumstances]. Tashkent, Tashkent State University of Law, 2025, p. 54.

7. Utemuratov M. Davlat va huquq tarixida jinoyat va jazo masalalari [Issues of crime and punishment in the history of state and law]. Nukus, QDU Publ., 2020, p. 114.

8. Mamajonov A.M. Aqli rasolikni istisno etmaydigan tarxda ruhiy holati buzilgan shaxslarning jinoiy javobgarligi [Criminal liability of persons with mental disorders in a case that does not exclude sanity]. Tashkent, Tashkent State University of Law, 2023, p. 126.

9. Turgunboyev E.O. Jazodan ozod qilishni belgilovchi jinoyat qonuni normalarining rivojlanish tarixi [History of the development of criminal law norms determining exemption from punishment]. Center for Advanced Training of Lawyers under the Ministry of Justice. *Legal, Social, Scientific and Practical Journa*l, 2021, vol. 5, no. 1.

10. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Tashknet, Yangi asr avlodi Publ., 2005, p. 47, 662.

11. Nasirov I.S. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar residiv jinoyatchiligini oldini olishni takomillashtirish [Improving the prevention of recidivism among women released from prison]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2025, p. 32.

12. Akramova M.T. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning maxsus asoslari [Special grounds for exemption from criminal liability]. Tashkent, Tashkent State University of Law, 2022, p. 51.

13. Shcherba D.A. Dogovor: teoreticheskiye i prakticheskiye voprosy [Contract: theoretical and practical issues]. Khabarovsk, Far Eastern Law Institute of the Ministry of Internal Affairs, Russia, 2007, p. 15.

14. Decree of the All-Russian Central Executive Committee ('VCIK'), No. 2 "On the Court" (Moscow, 7 March 1918), SU RSFSR, 1918, No. 26.

15. Shvekov G. V. Pervyy sovetskiy ugolovnyy kodeks [The First Soviet Criminal Code]. Moscow, Higher School, 1970, p. 270.

16. Vosstanovlenie resheniy VI Vserossiyskogo s"yezda Sovetov 6 noyabrya 1918 goda. Ob osvobozhdenii nekotorykh kategoriy zaklyuchennykh [Restoration of the decisions of the VI All-Russian Congress of Soviets of November 6, 1918. On the release of certain categories of prisoners.]. SU RSFSR, 1918, vol. 100, p.138.

17. Tairova G.M. Jinoyatchilikka qarshi kurashishning milliy modelini shakllantirish asoslari [Fundamentals of forming a national model of combating crime]. Tashkent, Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan, 2025, p. 45.

18. Badamshin I.D. Uslovno-dosrochnoye osvobozhdeniye v rossiyskom zakonodatel'stve [Parole in Russian law]. Omsk, Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation Omsk Academy, 2005, p. 28.

19. Ob osvobozhdenii ot nakazaniya v vide lisheniya svobody otdel'nykh kategoriy lits, arestovannykh v RSFSR: postanovlenie Verkhovnogo Suda Rossiyskoy Federatsii [Resolution of the Supreme Court of the Russian Federation "On the release from imprisonment of certain categories of persons arrested in the RSFSR"]. 1919, no. 14, p. 138.

20. Postanovleniye Narkomata yustitsii «O dosrochnom osvobozhdenii» [Resolution of the People's Commissariat of Justice "On early release"]. SU RSFSR, 1918, no. 85, p. 890.

21. Ugolovnyy kodeks RSFSR [Criminal Code of the RSFSR]. 1956. Avialable at: www.kodeks-luks.ru

22. Karaketova D.Y. Bezorilikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari [Criminal legal and criminological aspects of bullying]. Tashkent, Tashkent State University of Law, 2021, p. 189.

23. O'zbekiston SSRning Jinoyat kodeksi [Criminal Code of the Uzbek SSR]. Tashkent, "O'zbekiston" Publ., 1971.

24. Turgunboyev E.O. Jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the institution of release from punishment]. Tashkent, 2023, pp. 51, 274.

25. Aslanov B.T. Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bitlan ishlash faoliyatini takomillashtirish (ichki ishlar organlari misolida) [Improving the work with persons prone to committing crimes (on the example of internal affairs bodies)]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2025, pp. 15, 60.

26. Xo'janazarova M.M. Xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini takomillashtirish [Improving the prevention of crime against women]. Tashkent, University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, 2025, pp. 13, 43.

27. Isergepova A.K. Institut probatsii v ugolovnom sudoproizvodstve: problemy, tendentsii i razvitiye (na primere gosudarstv – uchastnikov Sodruzhestva Nezavisimykh Gosudarstv) [The Institute of Probation in Criminal Proceedings: Problems, Trends, and Development (Based on the Example of the Member States of the Commonwealth of Independent States)]. Saint Petersburg, Federal State Budgetary Educational Institution of Higher Education "Saint Petersburg University of the Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation", 2020, pp. 17, 196.

// O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGI TAHLILI

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2025-YIL 3-SON

# ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2025 ГОД № 3

# UZBEKISTAN LAW REVIEW

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2025 ISSUE 3

VOLUME 2 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.2.3.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.